

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA
G'ayrat SHOUMAROV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Komola FARFIYEVA
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

SH.T. ERGASHEV.

Kasb-hunarlarni ongli ravishda tanlash – shaxs va jamiyat manfaati 2

F.A. AKRAMOVA.

Barkamol avlod tarbiyasida oilaviy psixologik xizmatni qo'llash masalalari 4

F.K. OLIMOVA.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim orqali
ijodiy faoliyatga tayyorlash 6

E.U. XUDOYBERDIYEV.

Maktab ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirish dolzarb muammo sifatida 9

R.M. ABDULLAYEVA.

Ta'lim va hayot sifatining kasb tanlashga bog'liqligi 11

S.S. JO'RAYEV.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunar tanlashga tayyorlash zarurati 13

N.Z. ABIDOVA.

Bo'lajak logopedlarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish qonuniylari va tamoyillari ... 15

M.S. MAXMUDOVA.

Bolalarni nutqiy jihatdan maktab ta'limiga tayyorlashda korreksion-pedagogik
jarayonni tashkil etish yo'llari 18

У.Ю. ФАЙЗИБЕВА.

Состояние доступности окружающей среды и возможности их создания
для школьников и студентов в инклюзивном образовании 19

N. DALIMOVA.

Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod haqidagi qarashlari hamda
o'quvchilarda hayotiy qadriyatlarini shakllantirish 21

D.O' MIRZAYEVA.

Ontogenezda sensomotor funksiyalarning rivojlanishi 23

M. MANSUROV.

O'qituvchi kasbini tanlashda ta'lim va amaliyot integratsiyasining o'rni va ahamiyati 25

G.O. OCHILOVA.

Maktab o'quvchilarining innovatsion faolliklarini rivojlantirishda mustaqil
ishlarning ahamiyati 27

D.M. XAKIMOVA.

O'qituvchi innovatsion salohiyatining tuzilishi va uning funksional modeli 29

M. DEHQONOVA, Z. XUSNIDDINOVA.

Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan
korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish 31

D.M. MAXMUDOVA.

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash 32

D.R. BABAYEVA, K.T. AYTMURATOVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy asarni sahnalashtirish texnologiyasi 34

R.Sh. ALEYOVA.

Bolalarni vatanga e'tiqod va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mazmuni 36

G. BAYTILEUOVA.

Maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish 38

M.R. PO'LATXO'JAYEVA.

Koxlear implanti bo'lgan bolalar ota-onalariga tibbiy-pedagogik maslahatlar 40

A.D. OSTANAQULOV.

O'smirlik davridagi ruhiy salomatlikni qiyosiy-empirik o'rganish 42

A.A. СУЛТАНОВА.

Гендерные особенности факторов риска суицидального поведения у подростков 44

X.SH.YUNUSOVA, G.QAYUMOVA.

Innovatsion ta'lim klasteri muhitida bo'lajak defektoglarni inklyuziv ta'limga
tayyorlash texnologiyalari 47



1. Rasmlarda tasvirlangan “ayiq”, “tarvuz”, “olma” kabi soʻzlardagi “A” tovushining oʻrnini aniqlash.

2. “A” tovushi ishtirok etgan soʻzlarni eslash va ularni aniqlash.

3. Barmoqlar bilan harflarni hosil qilish.

4. Qalam, sanoq choʻp yoki kesmalardan harflarni hosil qilish.

5. Tebranish mashqi. “A” tovushini ovozni koʻtarib, pasaytirib kuylash.

6. “A” tovushi qatnashgan soʻzlardan gap tuzish (rasmlar asosida).

7. Nuqtalarni birlashtirish va harflarning nomini aytish.

8. “A” harfining ichini boʻyash.

9. “Chapak”, qalam, paxta kabi soʻzlarni boʻgʻinga boʻlish.

10. “Klaster” metodi orqali “A” hamda shu kabi harflarni tarmoqlantirish.

11. “L” harfini yasash uchun nechta kubikdan foydalanilgan? Ushbu kubiklarni har xil rangga boʻyang.

12. Berilgan geometrik shakllarning nomlarini ayting. Kvadrat shaklini qora, uchburchak shaklini qizil, kub shaklini yashil, toʻrtburchakni sariq, shar shaklini havorangga boʻyang.

13. Shakllarni 2, 4, 6 va 8 ta teng boʻlaklarga boʻling.

Mashgʻulotlar bolaning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, oʻqish, yozishga doir malaka va koʻnikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining taʼlim talablariga munosib tabiiy shakl, oʻyinlar yordamida rivojlantirib borishini taʼminlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni oʻstirish orqali maktab taʼlimiga tayyorlash maqsadida

qiziqarli matematik oʻyinlar, mantiqiy masalalar va mashqlar berib, bosh qotirmalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, interfaol-korreksion usullar taʼlim-tarbiya oluvchilarning muloqot olib borish boʻyicha koʻnikma va malakalarini rivojlantiradi, ular orasida emotsional aloqalar oʻrnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, oʻz oʻrtoqlarining fikrini tinglashga oʻrgatish, mustaqil fikrlashga oʻrgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini taʼminlaydi. Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifat darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Qodirova F., Toshpoʻlatova Sh., Aʼzamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2013.

2. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha taʼlim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi oʻyinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.

3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.

4. Bolangiz maktabga tayyormi? – Toshkent, 2011

5. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошкольная педагогика. – Москва: Академия, 2002.

Elektron taʼlim resurslari

www. tdp.uz

www. pedagog.uz

www. ziyonet.uz

СОСТОЯНИЕ ДОСТУПНОСТИ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ СОЗДАНИЯ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ И СТУДЕНТОВ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

У.Ю. Файзиева, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, кандидат педагогических наук

Ushbu maqolada mamlakatimizda inklyuziv taʼlimning ustuvor yoʻnalishlari va kamchiliklarini inobatga olgan holda, imkoniyati cheklangan bolalarning taʼlim olishi uchun sharoit yaratish boʻyicha tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar va tushunchalar: xavfsiz muhit, yorugʻlik va ovoqli signallar, panduslar, maxsus sanitariya punktlari.

This article provides recommendations on creating conditions for access to education for children with disabilities, taking into account the priorities and shortcomings of inclusive education in the country.

Key words and concepts: safe environment, light, sound signals, ramps, special sanitary units.

Согласно заявлению исполнительного директора ЮНИСЕФ Генриетта Фор, дети с ограниченными возможностями сталкиваются с многочисленными и часто усугубляющимися проблемами в реализации своих прав. У таких детей зачастую нет доступа к образованию, им никто не читает книг, их потребности редко учитывают при принятии решений.

Также особо подчеркнут вопрос о препятствиях, с которыми сталкиваются дети с инвалидностью, стремящиеся участвовать в жизни общества. Качество жизни детей с инвалидностью во многом зависит от целого ряда факторов: от типа инвалидности, места жительства ребенка

и того, к каким услугам он может получить доступ. Тем самым представители ЮНИСЕФ призывают учитывать эти факторы при разработке целенаправленных решений, направленных на устранение неравенства.

В Узбекистане проживает более 780 000 людей с инвалидностью. Из них инвалиды I группы составляют 8,5%, II группы – 71% и III группы – 20,5%. Среди лиц с инвалидностью дети до 16 лет составляют 97 тысяч человек. Поэтому социальная поддержка этого слоя населения должна носить комплексный характер. Реформирование системы образования в Узбекистане в последние десятилетия связано с усилением интеграционных процессов,



частью которых является реализация идеи инклюзивного образования.

Инклюзивное образование предполагает включение в образовательную систему всех категорий учащихся, в том числе, детей с ограниченными возможностями здоровья (далее – ОВЗ), основной задачей обучения и воспитания которых является интеграция их в социум и максимальная подготовка социальной и трудовой адаптации.

Есть страны, где инклюзивное обучение не декларируется, но начинает уже использоваться (Россия, Беларусь).

Изучая состояние изученности проблемы можно прийти к следующему:

1. Во всех исследованиях особо отмечается:
 - проблема доступности окружающей среды, усложняющее образование для людей с ОВЗ в общеобразовательной школе;
 - трудности в организации образовательного и интеграционного процессов детей с ограниченным здоровьем;
 - недостаточная осведомлённость населения об инклюзивном образовании;
 - отсутствие необходимых условий для детей с особыми потребностями;
 - незнание учителей специальных методов и подходов в обучении, в которых нуждаются дети;
 - не разработанность методики работы в инклюзивном классе, отсутствие надлежащей учебно-методической литературы
 - не разработана методика совместной работы школы и родителей;
 - не учтена индивидуальная коррекционная работа, направленная на устранение недостатков детей;
 - не разработана программа индивидуального подхода и планирования для определенного вида проблемы развития;
 - отсутствие компетентного специалиста
 - преподавателя, который владеет знаниями комплексного обучения всех детей в классе.

Инклюзия в образовании с учётом всех недостатков, включает в себя: признание равной ценности для общества всех учеников и педагогов; повышение степени участия учеников в культурной жизни школ расположенных на территории места проживания учащихся и одновременное уменьшение уровня изолированности части учащихся от общешкольной жизни; реструктурирование методики работы в школе таким образом, чтобы она могла полностью отвечать разнообразным потребностям всех учеников, проживающих рядом со школой; избавление от барьеров на пути получения знаний и полноценного участия в школьной жизни для всех учеников, а не только для тех, кто имеет инвалидность или относится к тем, у кого есть особые образовательные потребности.

Исходя из вышеперечисленных проблем, мы обращаемся к вопросу создания доступности инклюзивного образования в Республике Узбекистан.

Сегодня инклюзивный процесс в образовании понимается как специально организованный образовательный процесс, обеспечивающий включение и принятие ребенка с ограниченными возможностями здоровья в среду обычных сверстников в общеобразовательном учреждении, обучение по адаптированным или индивидуальным обра-

зовательным программам с учетом его особых образовательных потребностей.

Инклюзивное обучение детей с особенностями развития совместно с их сверстниками – это обучение разных детей в одном классе, или в одной школе но в специально выделенной группе (классе) при общеобразовательной школе.

Инклюзивное образование

– это международно-признанный инструмент реализации права каждого человека на образование, а так же основное направление в трансформации системы специального образования во многих странах мира.

Инклюзия – вовлечение в образовательный процесс каждого ребенка с помощью образовательной программы, которая соответствует его способностям; удовлетворение индивидуальных образовательных потребностей личности, обеспечение условий ее сопровождения [1].

Таким образом, инклюзивное образование – новое перспективное стратегическое направление образовательной политики и практики, в значительной степени затрагивающее основы общего образования.

При построении инклюзивной модели обучения в начальной школе, необходимо учитывать несколько важных аспектов.

1. Законодательная база, учитывающая все параметры инклюзивного образования включающая основные аспекты подготовки кадров от дошкольного до высшего образования, с учётом всех потребностей для качественного внедрения инклюзивности образования в республике.

2. Правовая просвещённость населения:

- взрослых
- детей

3. Грамотное внедрение законов об инклюзивном образовании, принятых государством:

– специальные требования к инфраструктуре школ (пандусы к входу на территорию школы, к входу в школу, удобства для передвижения детей с колясками в коридорах, надписи на стенах в коридорах, на перилах лестниц, указывающие направления движений для незрячих детей, специальные санузлы, приспособленные для колясок и незрячих детей, специальные парты для детей с проблемами передвижения);

– требование к интерьеру улиц, (тротуары, указатели улиц Брайлевыми шрифтами, звуковое и световое оформление светофоров) защищающие от проблем движения детей, взрослых людей с ОВЗ;

– требования к оформлению инклюзивного класса, необходимые средства и принадлежности для детей с ОВЗ, (специальные парты для колясочников, прибор для письма Брайлевыми шрифтами для незрячих, дополнительное световое освещение для слабовидящего ученика, слуховой тренажёр для не слышащего ученика, классная доска, разлинованная в клетку и в линейку, электронная доска, компьютер).

– требования к организации охранительного режима для детей с ОВЗ в процессе обучения.

Инклюзивное образование доступно при условии устранения всех недостатков в образовании, предоставляя таким детям равные возможности, которые умень-



шают уровни изолированности учащихся с ОВЗ от обще-школьной жизни. Следовательно, создание условий для субъектов инклюзивного образования при преодолении всех барьеров на пути получения знаний и полноценного участия в школьной жизни и поднятие их правовой грамотности является залогом толерантного отношения к такой категории детей.

Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями от 13.10.2020г. № ПП – 4860
2. Концепция развития инклюзивного образования в системе народного образования в 2020 – 2025 годах к постановлению Президента Республики Узбекистан от 13 октября 2020 года № ПП – 4860
3. Ахметова Д. З. Основные педагогические технологии инклюзивного образования. Педагогика и психоло-

гия инклюзивного образования. Учебное пособие <http://unesdoc.unesco.org/images/0013/001347/134785r.pdf>

4. Ардзинба В. А. Инклюзивное образование инвалидов в Соединённых Штатах Америки // Электронный журнал «Психологическая наука и образование». – 2010, №5, http://www.psyedu.ru/files/articles/2282/pdf_version.pdf – С. 23 – 29 2.
4. Акромова Г.Р. Ўқувчиларда толерантлик тушунчаларини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед.фил. номз... дисс. – Тошкент: 2007. 158 б.
5. Аликулова Х.Б. Ўқувчиларда ижтимоий адолат тушунчаларини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари: пед. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. 164 б.
6. Фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: пед.фил. номз. дисс – Тошкент, 1997. – 137 б.
7. Пенин, Г. Н. Инклюзивное образование как новая парадигма государственной политики / Г. Н. Пенин // Инклюзивное образование. – 2010. – № 9. – С. 41– 47

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BARKAMOL AVLOD HAQIDAGI QARASHLARI HAMDA O'QUVCHILARDA HAYOTIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

N. Dalimova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti dotsenti, p.f.d.

Изучение ценностей на сегодняшний день является очень важной задачей. Потому что, наличие жизненных ценностей, традиций имеет большое значение в обеспечении прочности семей, предотвращении семейных разводов и создании здоровой духовно-нравственной атмосферы в семьях. В данной статье даны рекомендации по развитию жизненных ценностей у учеников.

Ключевые слова и понятия: ценности, семейные ценности, традиции, развития ценностей.

Studying the values today is a very important task. Because the presence of life values and traditions is of great importance in ensuring the strength of families, preventing family divorces and creating a healthy spiritual and moral atmosphere in families. This article provides recommendations for the development of life values in students.

Keywords and concepts: values, family values, traditions, development of values.

Hayotiy qadriyatlar inson xulq-atvorining yo'nalganligi va xatti-harakatlarining nechog'li ahamiyatli ekanligini belgilovchi asosdir. Shuning uchun psixologik tadqiqotlarda "qadriyat" tushunchasi ko'pincha shaxsiy hayotdagi ma'no, individual qadriyatlarning yo'nalganligi, qadriyatli munosabatlar, ustanovkalar, norma va ideallar, hayot mazmunini anglaganligi kabi tushunchalar orqali aniqlanadi.

Qadriyat - subyektiv obraz yoki tasavvur sifatida qabul qilinadigan inson g'oyasidir, u madaniy va tarixiy me'yorlarni aks ettiradi. Individual va ijtimoiy yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'lib, u o'ziga xos turmush tarzini belgilab beradi hamda "munosib bo'lish" xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularni milliy qadriyatlar, urf-odatlar ruhida tarbiyalash qadimdan muhim masala hisoblangan. Xalqimizning milliy qadriyatlarga naqadar e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqlar, xalq so'zlari, ertaklar, maqollarning asrlar osha to'planib kelganligini ham alohida qayd etish o'rindir. Bu maqollar, hikmatli so'zlar qadim-qadimdan ota-bobolarimiz

yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol bo'lib ulg'ayishiga katta e'tibor qaratganliklariga yaqqol misoldir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga yo'llovchi bilim"), Kaykovusning "Qobusnoma", Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani"), "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi"), Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlari asrlar mobaynida farzandlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda. Bu asarlar necha-necha avlodga poklik, rostgo'ylik, mardlik, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, jasorat kabi qadriyatlarni singdirib kelayotgani sir emas.

Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham yoshlar tarbiyasi, odo-axloq, vijdon, imon va e'tiqod to'g'risida g'oyat qimmatli fikr-mulohazalar bildiriladi. Islom ilmida har qanday zararli xatti-harakat uchun jazo muqarrarligi ta'kidlanadi.

O'rta asr mutafakkirlaridan Abu Bakr ar-Roziyning (865-925) komil inson tarbiyasida qadriyatlarning o'rni haqidagi qarashlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Ar-Roziy o'z asarlarida



insonlarda yaxshi xulqni shakllantirish va badxulqlikni yo'qotish yo'llari hamda usullari haqida yozadi, aql bilan ish ko'rishga, hissiyotlarni jilovlay olishga, me'yorida lazzatlanishga, lahzalik lazzatga umrini baxshida qilmaslikka chaqiradi. U inson axloqan pok bo'lishida ijtimoiy omillarga ko'p e'tibor beradi hamda odamni ijtimoiy faollikka, jamiyatga foyda keltirib yashashga chorlaydi. Kuzatganimizdek, bugungi tarbiya sharoitida ham ar-Roziyning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash haqidagi fikrlari ko'plab oqilona xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Abu Rayxon Beruniy "Abadiy qadriyatlar" asarida turli xalqlar va dinlarning xususiyatlari, bu xalqlarning ma'lum davrlarga to'g'ri kelgan mashhur bayramlari, xotira kunlari hamda bir xalqni ikkinchisidan farqli qadriyatlar, urf-odatlar, turli xalqlar qo'llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergan. Turli xalqlarga xos qadriyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy maktab yaratadi. Shuningdek, Abu Rayxon Beruniy o'zining mashhur "Hindiston" asarida turli xalqlarning qadriyati va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, xudoga ishonishlari, do'zax va jannat haqidagi fikrlari bayon qilingan.

Milliy qadriyatlar, milliy tarbiya haqida so'z yuritar ekanmiz, bunda Kaykovusning "Qobusnoma" asarining fazilatlarini cheksiz: unda ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning hamma qirralari o'ta zukkolik bilan tahlil qilinadi. Asarning buyuk ahamiyati shundaki, hamma zamon, hamma ijtimoiy-siyosiy tuzumda ham yoshlarni milliy qadriyatlar, urf-odatlar ruhida barkamol inson qilib tarbiyalashda "Qobusnoma" o'z qiymatini aslo yo'qotmaydi. Jumladan "Qobusnoma"ning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" nomli 27-bobida quyidagi jumlar keltirilgan: "Farzandga odob, hunar o'rgatmoqlikni meros deb bilgil. Farzandni ota-ona tarbiyalamasa, uni kecha va kunduz tarbiyalaydur".

Yetuk o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi va umuman, uning ijtimoiy roli falsafiy-pedagogik jihatdan keng ochib beriladi. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, ularning hamkorligini, ota-ona va jamiyat tomonidan singdiriladigan qadriyatlarni alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsning har tomonlama bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi tarbiya egasi bo'lishi, bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitdagi muhim qadriyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bolaning g'ayrat va shijoatiga, sa'y-harakatlariga, xohish-intilishlariga bog'liq bo'ladi. Abdulla Avloniy asarlaridagi odob-axloq va yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan chuqur falsafiy g'oyalar, bolalarni axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda insoniyat va jamiyatga nisbatan turli xil qabihliklarni amalga oshirmaslikka undashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, sharq mutafakkirlarining shaxsning kamoloti, undagi sog'lom xulq-atvor, yosh avlodning ma'naviyati va dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari sifatida undagi imon va insof, aql-zakovat va farosat, e'tiqod va diyonat kabi qadriyat kategoriyalari ilgari surilgan. Bularning ta'sirida shakllangan insoniy fazilatlar esa shaxs komilligining omillaridandir.

Hozirgi kunda hayotiy qadriyatlarining shakllanishi yangi bosqichini boshdan kechirmoqda, bu zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, yashash uchun imkoniyatlarni kengaytirish

bilan bog'liq. Hayotiy qadriyatlar haqidagi fikrlarni tahlil qilish milliy qadriyatlarni o'quvchilarda shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak, degan savolni o'rtaga chiqaradi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'quvchilarda qadriyatlarni shakllantirishga doir quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishni lozim topdik:

1. Qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha tadbirlar, shuningdek, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishni oshirish kerak, buning uchun ijodiy ishlar tanlovini, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qiladigan suhbatlar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish hamda ushbu uchrashuvlarga jamiyat va davlat oldidagi o'z burchi va majburiyatlarini to'liq anglagan, yaxshi xulq-atvor, keng dunyoqarash, bilim hamda ijodiy salohiyatga ega, vatanparvar insonlarni jalb qilish lozim.

2. O'quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasi kontekstida "subyekt-subyektivlik" o'zaro ta'siriga va o'qitishning faol usullarini qo'llashga asoslangan jarayon sifatida tashkil etilishi kerak (masalan, qadriyatlarga zarar yetkazuvchi xulq-atvorga berilish xavfi yuqori bo'lgan vaziyatli videosuyjetlarni ko'rish, rolli o'yinlar).

3. Kattalar va bolalarda qadriyatlarni shakllantirish dasturlari ikki komponentni – ta'limiy (ijtimoiy ma'lumot berish) va individual-yosh (masalan, o'smirlardagi negativizm), gender, xulq-atvorning motivatsion xususiyatlari, axborotni o'zlashtirish va interpretatsiya qilish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik treningni o'z ichiga olishi kerak.

4. Mahalla va oila institutini mustahkamlash uchun oilaviy qadriyatlarining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatgan holda tizimli ravishda o'rganish, buning uchun asosiy avloddan-avlodga o'tadigan qadriyatlarni aniqlash maqsadida hamda ota-onalik roli, ayollarning majburiyatlari, erkak, ayol va bolalarga nisbatan stereotip va ba'zan kamsituvchi oilaviy qadriyatlar deklaratsiyalarini bartaraf qilishga bag'ishlangan televidion ko'rsatuvlar mazmunini tahlil qilish lozim.

5. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'analar, urbanizatsiya samaralari va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarini inobatga olgan holda bolalar va yoshlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

6. Oilaviy qadriyatlar va ustanovkalar haqidagi stereotip g'oyalarni uzatishni bartaraf etish maqsadida, tuman va shahar miqyosidagi tegishli idoralar mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish maqsadida ta'limiy (ijtimoiy ish va psixologiyani asosiy bilimlari) tadbirlar (seminarlar, psixologik maslahat va h.k.z.) tashkil qilish lozim.

7. Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarning yangi avlodini yaratishda milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladigan ma'lumotlar bilan boyitishga e'tibor qaratish muhim.

8. Farzandlarni milliy davlatchilik, ilm-fan, madaniyat, san'at, me'morchilik tarixi va qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini yanada oshirish maqsadida tarixiy obida, muzey va teatrlarda, atoqli olim va ijodkorlarning uy-muzeylari hamda ishxonalarida ko'chma ochiq mashg'ulotlar uyushtirish lozim.

9. Bolalarni turli xalq sayillari, umumxalq bayramlari, o'yinlar va sport musobaqalariga keng jalb qilish orqali ularni milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash kerak.



10. "Uch avlod uchrashuvi" loyihasida ta'lim muassasalari va mahallalarda turli avlod vakillari va o'quvchilar ishtirokida muloqotlar tashkil etish, buning uchun taniqli tadbirkor, el suygan san'atkor va sportchilarni jalb qilish muhimdir.

Adabiyotlar

1. Mahalla haqiqiy kuch bo'layapti. Sh.Mirziyoyevning "Uch avlod bog'i" ochilish marosimida so'zlagan nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/5184>
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yangi asr avlodi, 2016. -320 b.

3. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -T.: Fan, 1-jild. 2006. - 468 b.

4. Алпатов К.А., Семенихина Т.А. Роль ценностей в формировании смыслового поля социализации «Я» и «другого» (на примере теории поколений) // Научные проблемы гуманитарных исследований. 2011. № 6. С.238-243.

5. Сиврикова Н.В. Проблемы изучения поколений в психологии // Культурно-историческая психология. 2015. Т. 11. № 2. С. 100-107.

6. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). -T.: "O'zbekiston", 1997. -198 b.

ONTOGENEZDA SENSOMOTOR FUNKSIYALARNING RIVOJLANISHI

D.O'. Mirzayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya mutaxassisligi 2-bosqich magistratura bosqichi talabasi

В данной статье рассматривается вопрос развития сенсомоторных функций в онтогенезе детей, совместная работа зрительно-слухового, речедвигательного и двигательного анализаторов, которое является основой развития речи, особенностью развития мелкой моторики рук и правильной оценки неречевых процессов.

Ключевые слова и понятия: сенсомотор, онтогенез, сигнал, раннее детство, память, внимание, речь, активность, моторика, экспрессивная речь, импрессивная речь.

This article discusses the development of sensorimotor functions in the ontogenesis of children, the joint work of the visual-auditory, speech-motor and motor analyzers, which is the basis for the development of speech and a feature of the development of fine motor skills of the hands and the correct assessment of non-speech processes.

Key words and concepts: sensorimotor, ontogenesis, signal, early childhood, memory, attention, speech, activity, motor skills, expressive speech, impressive speech.

Sensomotorika (lotincha *sensus* - his qilish, sezish va *motor* - vosita) - faoliyatning hissiy va harakat qismlarini o'zaro muvofiqlashtirish. Bolaning hayotini birinchi kunlaridanoq tom ma'noda hissiy rivojlanishi turli xil faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, turli qobiliyatlarni shakllantirish va bolaning maktabga tayyor bo'lishining kalitidir. Aqliy, jismoniy, estetik tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan hissiy tarbiya darajasiga, ya'ni bolaning atrof-muhitni qanchalik mukammal eshitishi, ko'rishi va his qilishiga bog'liq. Hozirgi davrda pedagogik nazariyada sensor va motor funktsiya muammolari keng muhokama qilinmoqda. Hissiy qobiliyatlar tug'ma emas, balki ontogenez jarayonida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda rivojlanadi va uning ijtimoiy rivojlanishining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Sensomotor rivojlanish uchta davrga ajratiladi: go'daklik, erta bolalik va maktabgacha.

Go'daklik davrida ko'rish va eshitish qo'lning teginish, harakat organi sifatida rivojlanishidan oldinda bo'ladi, bu bolaning xatti-harakatlarining barcha asosiy shakllarini shakllantirishni ta'minlaydi va shuning uchun bu jarayonda yetakchi rolni belgilaydi. Eshitish va ko'rishning mavjudligi nutqning normal rivojlanishi uchun eng muhim shartdir. Buning sababi shundaki, bolaning nutqi rivojlanayotgan paytda ikkinchi signal tizimi obyektiv haqiqatni aks ettiruvchi birinchi signal tizimining impulsarlari bilan doimo qo'llab-quvvatlanganda to'g'ri shakllanadi. Birinchi signal tizimida

his-tuyg'ularni shakllantiradigan signallar mavjud. Eshitish yordamida bola o'z artikulyasion apparati faoliyatini eshitish analizatoridan keladigan signallarga bo'ysundirish qobiliyatini egallaydi. Eshitish yordamida bola boshqalarning nutqini tushunishni, unga taqlid qilishni va talaffuzini nazorat qilishni o'rganadi.

Nutqni o'zlashtirishda ko'rish ham muhim rol o'ynaydi - bola u bilan gaplashayotgan odamlarning lablari va tilining harakatlarini diqqat bilan kuzatadi. U bu harakatlarni takrorlaydi, ularga taqlid qiladi. Shunday qilib, vizual, eshitish, nutq-motor va harakat analizatorlarining birgalikdagi ishi nutqni rivojlantirish uchun asosdir. Go'daklik davrida bolada obyekttni tekshirish harakati rivojlanadi, ushlar shakllanadi, qo'l teginish organi va harakat organi sifatida rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshda vizual-motor muvofiqlashtirish o'rnatiladi, bu manipulyatsiyaga o'tishga yordam beradi, bunda ko'rish qo'lning harakatini boshqaradi, shuningdek, obyekttni vizual idrok etish, u bilan harakat qilish va uning nomlanishi o'rtasidagi farqlangan munosabatlar hisoblanadi. Aynan shu davrda sensomotor rivojlanish eng qizg'in davri bo'lib, bu davr miyaning rivojlanish tezligi bilan bog'liq.

Shunga qaramay, go'daklik davrining oxiriga kelib asosiy sensomotor ko'nikmalar shakllanganiga qaramay, harakat funksiyalarining shakllanishi 5-6 yoshgacha davom etadi. Har bir bolalarda sensomotor rivojlanish individual tarzda sezilarli darajada farq qiladi, ammo barcha holatlarda sensomotor



funksiyalarining rivojlanishi ma'lum bir ketma-ketlik tarzida amalga oshadi. Censomotor funksiyalar orasida barmoqlarning harakatlari alohida ahamiyatga ega, chunki ular bolaning yuqori asab faoliyati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qo'l harakati doimo nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Qo'lning birinchi motor funksiyasi ushlashdir. Sensomotor harakatlardan biri bo'lgan ushlash dastlab go'dakda tug'ma refleks sifatida ta'kidlanadi. 4-5 oyligida narsalarni ushlash rivojlangan, ya'ni shartli refleks xarakteriga ega bo'ladi va barcha barmoqlar va kaftlarni narsalarga qo'yish bilan amalga oshiriladi.

Faqat 9-oyda bola barmoqlari bilan narsalarni olishni boshlaydi va 11-12-oylikda obyektlarni o'z maqsadlari uchun ishlatishga birinchi urinishlar paydo bo'ladi: kosadan ichish, qoshiq bilan bo'tqa yeyish, sochlarini taroq bilan tarash va boshqalar. Harakat funksiyalarini o'zlashtirishda taqlid muhim rol o'ynaydi, bu o'z harakatlarini takrorlashda, kattalarning tanish harakatlarini takrorlashda va yangi harakatlarni takrorlashda ifodalanadi. O'z harakatlarining takrorlanishi bolaning yuzini bir qo'lning kafti bilan, keyin ikkinchi qo'li bilan aylantirib, ko'zdan kechirishdan iborat. Rivojlanishning keyingi bosqichida, agar kattalar ularni ko'rsa, bola ilgari o'rganilgan harakatlarni zavq bilan taqlid qiladi. 1 yoshga yaqin chaqaloq kattalarning harakatlarini diqqat bilan kuzatib boradi. Ular u uchun yangi va ularni kuzatgandan so'ng, bola ularni takrorlashni boshlaydi. Dastlab, boladagi bu harakatlar noto'g'ri, u tez-tez o'tkazib yuboradi, lekin keyin bu harakatlar tobora ko'proq muvofiqlashtiriladi. Shu bilan birga, bir yarim yoshga kelib, bu harakatlar shunchalik aniq bo'ladi, ular kattalarning harakatlariga yaqin bo'ladi. Erta bolalik davrida idrok va sensomotor harakatlar juda nomukammal bo'lib qoladi. Bolada yangi turdagi tashqi yo'naltirish harakatlari (urinish) rivojlana boshlaydi, keyinchalik obyektlarning xususiyatlariga ko'ra vizual korrelyatsiyasi; obyektlarning xossalari haqida tushuncha mavjud bo'la boshlaydi. Shu bilan birga, obyektlar xususiyatlarining rivojlanishi ularning amaliy faoliyatdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Shunday qilib, hayotning taxminan 11-oyligidan boshlab, bolalar manipulyatsiyadan farq qiladigan funksional harakatlarga ega bo'lib, ular obyektning ijtimoiy mohiyatini ifodalaydi, uning maqsadini belgilaydi. Bolalar obyektlardan maqsadli foydalanishni boshlaydilar, masalan, ular o'yinchoq mashinalarni haydaydilar, qo'g'irchoqni choy bilan mehmon qiladi. Bu davrda qo'llarning harakatlari, shuningdek, ilgari ishlab chiqilgan harakatlar va ularni umumlashtirish va yangi obyektlarga o'tkazish rivojlanadi.

1 yosh-u 1 oylik - 1 yosh-u 3 oylik bolada bosh barmog'ining uchi, keyin esa ko'rsatkich barmog'i faollashadi. Bundan tashqari, barcha barmoqlarning nozik harakatlari intensiv rivojlana boshlaydi va bu erda bolalik davri davomida shakllanib boradi. Mayda qo'l motorikasi va ko'ruv-harakat koordinatsiyasini muvofiqlashtirishning yoshga bog'liqlik xususiyatlari mavjud. Bola hayotning ikkinchi yilida bir qo'lida ikkita obyektни ushlab turishi, qalam bilan chizish, kitobning sahifalarini varaqlashi mumkin. 2 tadan 6 tagacha kublarni bir-birining ustiga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi.

Hayotning uchinchi yilida, normal rivojlanayotgan bola banka qopqoqlarini ochadi, qaychi ishlatadi, barmoqlari

bilan munchoq donalarini ipga teradi. U barmoqlari bilan qalam tutadi, alohida geometrik shakllarni bir nechta belgilari bilan rasmini chiza oladi, 9 ta kubikdan iborat bo'lgan binolarni yig'adi va quradi. Maktabgacha yoshda sensomotor funksiyalar o'z maqsadlari, vazifalari, amalga oshirish vositalari va usullariga ko'ra maxsus kognitiv faoliyat sifatida qaraladi. O'yinni manipulyatsiya qilish obyektни tekshirish harakatlari bilan almashtiriladi va uning qismlari maqsadini, harakatchanligini va bir-biri bilan bog'lanishini aniqlashtirish uchun uni maqsadli tekshirishga aylanadi.

3-7 yoshli bolalar idrokining eng muhim farqlovchi xususiyati shundaki, boshqa yo'naltiruvchi faoliyat turlari tajribasini birlashtirgan holda, ko'ruv idroki atrof-muhit bilan tanishishda yetakchilardan biriga aylanadi. Bu yoshda bolalar sensor me'yorlarni faol o'zlashtiradilar, ularning diqqatni jamlash, rejalashtirish, nazorat qilish va idrok etishdan xabardorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, hissiy qobiliyatlar tug'ma emas, balki ontogenez jarayonida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda rivojlanadi va uning ijtimoiy rivojlanishining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ayupova, Mukarram Yu. Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education. Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 2345-2353.
2. Ayupova, Mukarram Y. Characteristics of general and small motor functions in children with dysarthric speech deficiency. Current research journal of pedagogics 3.02 (2022): 13-21.
3. Ayupova, Mukarram. «On the basis of games for children with speech deficiency literacy teaching.» *Academicia: an international multidisciplinary research journal* 11.2 (2021): 1496-1501.
4. Yuldashevna, Ayupova Mukarramxon, and Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. «Correction-pedagogical work system of preparation of children for independent activity after cochlear implantation.» *Archive of Conferences*. Vol. 10. No. 1. 2020.
5. Киселев Ю.С. Развитие сенсомоторных реакций у детей дошкольного возраста. Дисс... к.псих. наук. Москва, 2001,– 160 с. <https://www.dissercat.com/content/razvitie-sensomotornykh-reaktsii-u-detei-doshkolnogo-vozrasta>
6. Хвингия И.С. Разница в формировании процессов у детей с доминирующим правым полушарием. <https://www.b17.ru/article/50277/> (дата обращения 25.02.2021)
7. Глухоедова, О.С. Активизация речевой деятельности детей с отсутствием вербальных средств общения.– М.: Библио-Глобус, 2016–142 с.